

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
FARMONI**

**DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI FAOLIYATINING OCHIQLIK  
DARAJASINI OSHIRISH VA BAHOLASH TIZIMINI JORIY ETISH CHORA-  
TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

Fuqarolarning axborotni erkin izlash va olishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini ta‘minlash, ularning ochiqlik borasidagi samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilash hamda faoliyatini ilg‘or xalqaro standartlar asosida baholash tizimini joriy etish maqsadida:

1. 2022-yil 1-avgustdan boshlab:

Davlat budjeti, shuningdek, xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar, shu jumladan istiqbolli investitsiya va infratuzilma loyihalari bo‘yicha ularning asosiy texnik ko‘rsatkichlari va boshqa loyiha hujjatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar Ochiq ma‘lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma‘lumotlar ro‘yxatiga kiritilsin;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalarida (keyingi o‘rinlarda — davlat organlari va tashkilotlari) ochiqlik bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholashga qaratilgan Ochiqlik indeksi joriy etilsin.

2. Belgilansinki:

a) Ochiqlik indeksi quyidagi indikatorlar asosida baholanadi:

davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlikni ta‘minlashga mas‘ul bo‘lgan xodimlar faoliyatining samaradorligi;

davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlarida axborotlarni joylashtirish va elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish holati;

ijtimoiy ahamiyatga molik ma‘lumotlarni qonunchilikda belgilangan axborot resurslarida e‘lon qilish va jamoatchilik oldida hisobdorlik tizimining yo‘lga qo‘yilishi;

budget jarayonining ochiqligini ta‘minlashga oid ma‘lumotlarning rasmiy veb-saytda joylashtirilishi;

Ochiq ma‘lumotlar portalida ma‘lumotlar joylashtirilishi;

ommaviy kommunikatsiya texnologiyalarining joriy qilinishi;

korruptsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishda ochiqlik tamoyillaridan foydalanish holati;

jamoatchilik kengashi faoliyatining samaradorligi;

b) Ochiqlik indeksini baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Ochiqlik indeksi “0” balldan “100” ballgacha baholanib, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati samaradorligi “yashil”, “sariq” va “qizil” toifalarga ajratiladi;

baholash har yili oldingi yilning 1-yanvaridan 31-dekabrigha qadar bo‘lgan davrini o‘z ichiga qamrab oladi;

2022-yilda Ochiqlik indeksi 1-iyuldan boshlab joriy yilning ikkinchi yarmi qamrab olingan davr uchun baholanadi;

Ochiqlik indeksini hisoblash natijalari har yili 1-aprelga qadar Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) tomonidan “eanticor.uz” elektron platformasi va ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilib boriladi.

3. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini monitoring qilish va baholash bo‘yicha metodika [1-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

4. Agentlik (A. Burxanov) Moliya vazirligi (T. Ishmetov), Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasi (A. Abdullayev) hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda Ochiqlik indeksini hisoblash natijalariga ko‘ra quyidagi choralarni ko‘rib borsin:

a) “yashil” toifadagi davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikni ta’minlash sohasidagi ijobiy tajribasini ommalashtirish;

b) “sariq” toifadagi davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikni ta’minlash sohasidagi faoliyatini yanada yaxshilash bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqish, ularni amalga oshirishga ko’maklashish va amaliy yordam berish;

v) “qizil” toifadagi davlat organlari va tashkilotlarida:

ochiqlikni ta’minlashga mas’ul bo’lgan xodimlarga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda intizomiy jazo chorasini qo’llash to’g’risida taklif kiritish;

ochiqlikni ta’minlashda yo’l qo’yilayotgan tizimli kamchiliklarni o’rganish, bartaraf etish hamda ularning ushbu yo’nalishdagi faoliyatini yaxshilash bo’yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish.

5. Shunday tartib o’rnatilsinki, unga muvofiq:

amalga oshirilgan ishlar va ko’rilgan choralar ijrosi bo’yicha davlat organlari va tashkilotlarining birinchi rahbarlari hisobotlari har yarim yilda Oliy Majlis Senati majlislarida eshutiladi;

baholash natijalari e’lon qilingach, bir oy muddatda faoliyati “qizil” toifada baholangan davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining ochiqlik sohasida yo’l qo’ygan kamchiliklari va ularni bartaraf etish bo’yicha rejalashtirgan chora-tadbirlari yuzasidan Hukumat tizimidagi davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining axboroti Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlislarida eshutiladi.

Hukumat tizimiga kirmaydigan tashkilotlar rahbarlarining axborotini Oliy Majlis Senati majlislarida eshinish hamda natijasiga ko’ra tegishli choralarni belgilash tavsiya etilsin.

6. Belgilansinki, Agentlikning tavsiyasiga asosan budjet mablag’lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan bir yilda bir marta faoliyati “yashil” toifada baholangan davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikni ta’minlashga mas’ul bo’lgan xodimlari bir oylik lavozim maoshining 50 foizi miqdorida rag’batlantiriladi.

7. Agentlik huzurida uning direktori rahbarligida mas’ul davlat organlari va tashkilotlari vakillaridan iborat tarkibda Ochiqlikni ta’minlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholash komissiyasi tashkil etilsin va quyidagilar uning asosiy vazifalari etib belgilansin:

davlat organlari va tashkilotlarining Ochiqlik indeksini baholash natijalarini ko’rib chiqish va Ochiqlik indeksi bo’yicha yakuniy qaror qabul qilish;

har yarim yilda davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ochiqlikni ta’minlash sohasida amalga oshirilgan ishlar, rejalashtirilgan loyihalar va chora-tadbirlar ijrosini muhokama qilib borish;

tahlillar va keng jamoatchilik fikrini o’rganish asosida ochiq e’lon qilinishi lozim bo’lgan ma’lumotlar ko’lamini kengaytirish, sifatini oshirish va dolzarbligini ta’minlash bo’yicha takliflar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish chora-tadbirlarini belgilash;

davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikni ta’minlash borasidagi yangi loyihalarini ko’rib chiqish va ularni amalga oshirish yuzasidan amaliy yordam ko’rsatish.

8. Agentlik (A. Burxanov) Adliya vazirligi (R. Davletov), Davlat statistika qo’mitasi (B. Begalov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A. Xodjayev) bilan birgalikda uch oy muddatda quyidagilarni Vazirlar Mahkamasiga kiritin:

davlat organlari va tashkilotlari uchun o’z rasmiy veb-saytida joylashtirilishi majburiy bo’lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlarning namunaviy shakllarini;

ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlarni rasmiy veb-saytga joylashtirishda ularni pasportlash tizimini joriy etish bo’yicha amaldagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflarni;

davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ochiqlikni ta’minlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan majburiyatlarga rioya etilishini masofaviy monitoring qilish, natijalarini rasmiylashtirish va ko’rib chiqish muddatlarini belgilovchi tartibni.

9. 2022-yil 1-iyuldan boshlab Ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo’lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlar ro’yxatiga kiritilgan ma’lumotlarni rasmiy veb-saytga joylashtirishda (e’lon qilishda) quyidagi tartib belgilansin:

ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar davlat organlari va tashkilotlari rasmiy veb-saytining bosh sahifasida alohida bo'limga joylashtiriladi;

ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar rasmiy veb-saytning boshqa sahifasiga (veb-manzilga) joylashtirilgan taqdirda, ular e'lon qilinmagan deb hisoblanadi va Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini monitoring qilish va baholash bo'yicha metodikaning baholash mezonini bajarilmagan deb topiladi.

10. Agentlikka davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash borasida quyidagi qo'shimcha huquqlar berilsin:

davlat organlari va tashkilotlari hamda ularning mansabdor shaxslariga ochiqlik sohasidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarning buzilishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risida ogohlantirish e'lon qilish;

ochiqlikka oid qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarning buzilishiga olib kelgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko'rish to'g'risida taqdimnoma kiritish;

davlat organlari va tashkilotlari tomonidan rasmiy veb-sayt va boshqa axborot resurslarida e'lon qilingan ochiq ma'lumotlarning haqqoniyligini tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilib olish haqida so'rovnoma yuborish.

Belgilansinki, Agentlikning ogohlantirish, taqdimnoma va so'rovnomalari davlat organlari va tashkilotlari tomonidan o'n kun muddat ichida ko'rib chiqilishi va natijalari yuzasidan yozma axborot berilishi shart.

11. Agentlik (A. Burxanov):

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N. Xusanov), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Shermatov), Adliya vazirligi (R. Davletov) bilan birgalikda ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini chuqur tahlil qilgan holda ikki oy muddatda davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikni ta'minlashga mas'ul xodimlari bilan shartnomalar tuzishda qo'llash uchun tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lgan ochiqlikni ta'minlash sohasida qonunchilik talablarini buzganlik uchun intizomiy javobgarlikni belgilovchi namunaviy shartlarni ishlab chiqsin va e'lon qilsin;

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Shermatov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A. Xodjayev), Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi (A. Abdullayev) bilan birgalikda 2023-yil 1-yanvarga qadar ochiqlikni ta'minlash bo'yicha monitoring o'tkazish, ochiqlik bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholash, shuningdek, Ochiqlik indeksini baholash jarayonlarini Yagona idoralararo axborot tizimi (platforma) orqali yo'lga qo'yilishini ta'minlasin.

12. Agentlik (A. Burxanov) xalqaro tashkilotlar va xorijiy ekspertlarni jalb etgan holda, davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikni ta'minlashga mas'ul bo'lgan xodimlarini muntazam o'qitish va malakasini oshirish choralarini ko'rsin.

13. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi (A. Xadjayev) va O'zbekiston Milliy axborot agentligi (A. Ko'chimov)ga mazkur Farmonning mazmun va mohiyatini hamda Ochiqlik indeksini hisoblash natijalarini keng yoritib borish tavsiya etilsin.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga [2-ilovaga](#) muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

15. Agentlik ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.

16. Mazkur Farmonning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Agentlik direktori A.E. Burxanov belgilansin.

Farmon ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2022-yil 14-iyun,

## **Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini monitoring qilish va baholash bo‘yicha**

### **METODIKA**

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini monitoring qilish va baholash bo‘yicha metodika (keyingi o‘rinlarda — Metodika) davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlikni ta‘minlash bo‘yicha monitoring o‘tkazish, sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi va natijadorligini baholash orqali Ochiqlik indeksini hisoblash tartibini belgilaydi.

2. Baholash davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikni ta‘minlash borasidagi samaradorlik ko‘rsatkichlarini chuqur tahlil qilish, baholash, tizimli ravishda yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda ochiq ma‘lumotlarni e‘lon qilishning ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan mexanizmlarini joriy etish maqsadida o‘tkaziladi.

3. Baholash va mazkur faoliyatda ishtirok etadigan davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirib borish Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) tomonidan amalga oshiriladi.

4. Ushbu Metodikada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Ochiqlikni ta‘minlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholash komissiyasi — Agentlik, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasi, Moliya vazirligi va Davlat statistika qo‘mitasining zarur bilim va tajribaga ega yuqori malakali mutaxassis va ekspertlaridan iborat tarkibda tuziladigan davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini monitoring qilish va baholash natijalari bo‘yicha Ochiqlik indeksini hisoblash haqida yakuniy qaror qabul qiladigan, muvofiqlashtiruvchi organ tomonidan shakllantiriladigan kollegial organ;

davlat organlari va tashkilotlari — davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalari;

indikator — ochiqlik bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini aniqlashda baholanishi lozim bo‘lgan asosiy ko‘rsatkich;

muvofiqlashtiruvchi organ (ishchi organ) — Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;

mas‘ul xodimlar — ochiqlikka oid qonunchilik hujjatlari bajarilishini o‘z vaqtida va sifatli ta‘minlash vazifasi yuklatilgan davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari hamda murojaatlar bilan ishlash bo‘linmalari xodimlari;

monitoring qilish va baholash — indikatorlarda belgilangan mezonlar asosida davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ochiqlikni ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini aniqlash orqali ularning eng yuqori natijadan eng past natijagacha saralangan ro‘yxatdagi o‘rnini belgilash;

baholashda ishtirok etadigan davlat organlari — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasi, Moliya vazirligi va Davlat statistika qo‘mitasi.

5. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini monitoring qilish va baholash quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

qonuniylik — davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini monitoring qilish va baholashni qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiq amalga oshirish;

betaraflik — monitoring va baholash faoliyatini amalga oshiruvchi davlat organlarining xodimlari o'z vakolat va vazifalarini har qanday davlat organlari, tashkilotlar va mansabdor shaxslardan qat'i nazar, faqat qonunga bo'ysungan holda amalga oshirishi;

xolislik — davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlik sohasidagi faoliyatini monitoring qilish va baholashni subyektiv fikrlarning ta'sir qilishiga yo'l qo'ymagan holda amalga oshirish;

maxfiylikni ta'minlash — davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirdan iborat, shuningdek, oshkor etilishi natijasida shaxsning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, jamiyat yoxud davlat manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan axborotni e'lon qilishda qonunchilikda belgilangan cheklolarga rioya qilish;

ochiqlik va shaffoflik — monitoring va baholash faoliyati haqidagi ma'lumot va axborotlardan to'liq, o'z vaqtida, erkin va bepul foydalanish imkoniyatini ta'minlagan holda, ularni belgilangan axborot resurslariga joylashtirish;

ishonchlilik — muvofiqlashtiruvchi organning davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ochiqlikni ta'minlash sohasidagi faoliyatini monitoring qilish va baholashda ochiq e'lon qilingan ma'lumotlarning ishonchligini tasdiqlovchi qo'shimcha materiallarni talab qilib olishi, ularning haqqoniyligiga shubha paydo bo'lgan taqdirda mustaqil manbalar orqali o'rganishni amalga oshirishi.

6. Baholash mazkur Metodikaga 1 — 8-illovalarda keltirilgan alohida mezonlardan tashkil topgan indikatorlar asosida amalga oshiriladi.

## **2-bob. Monitoring qilish va baholash tartibi**

7. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi Agentlik tomonidan monitoring qilib boriladi.

8. Davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlik bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorlik va natijadorlik darajasi Metodikaga tegishli ilovalar bo'yicha quyidagi mas'ul davlat organlari tomonidan baholash indikatorlari va mezonlari asosida baholanadi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi — Metodikaga 1-ilovada nazarda tutilgan mezonlar bo'yicha;

Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi — Metodikaga 2-ilovada nazarda tutilgan mezonlar bo'yicha;

Agentlik — Metodikaga 3, 6 — 8-illovalarda nazarda tutilgan mezonlar bo'yicha;

Moliya vazirligi — Metodikaga 4-ilovada nazarda tutilgan mezonlar bo'yicha;

Davlat statistika qo'mitasi — Metodikaga 5-ilovada nazarda tutilgan mezonlar bo'yicha.

9. Baholashda to'plangan ballar rasmiy veb-sayt, Ochiq ma'lumotlar portali, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalar, maxsus dasturiy ta'minot va uning mobil ilovalari hamda boshqa axborot resurslarida joylashtirilgan (qonunchilik hujjatlari, indikator yoki baholash mezonida axborot resursi aniq ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno) statistik va tahliliy ma'lumotlar, shuningdek, joriy etilgan mexanizm hamda platformalarni inobatga olgan holda hisoblanadi.

10. Axborot resurslarida yangilab borishning aniq muddati qonunchilik hujjatlari asosida belgilanmagan taqdirda, ma'lumotlarni yangilab borishning oxirgi muddati quyidagi tartibda hisoblanadi:

doimiy (muntazam) yangilab boriladigan ma'lumotlar — bir sutkadan kechiktirmay;

har oyda yangilab boriladigan ma'lumotlar — keyingi oyning beshinchi sanasi;

har chorakda yangilab boriladigan ma'lumotlar — har chorak yakunidan keyingi oyning o'ninchi sanasi;

har yarim yillikda (har olti oyda) yangilab boriladigan ma'lumotlar — har olti oy yakunidan keyingi oyning o'n beshinchi sanasi;

har yillik (bir yilda bir marotaba) yangilab boriladigan ma'lumotlar — har yil yakunidan keyingi yilning 20-fevral sanasi.

11. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini ta'minlash sohasida amalga oshirilgan ishlar samaradorligi va natijadorligining reytingi Agentlik (ishchi organi) tomonidan aniqlanadi.

Bunda, reyting har yili oldingi yilning 1-yanvaridan 31-dekabriga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga qamrab oladi.

12. Indikatorlar kesimida to'plangan ballarni hisoblash baholashda ishtirok etadigan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Baholashda ishtirok etadigan davlat organlari o'zlari mas'ul bo'lgan indikatorlar bo'yicha to'plangan ballarning hisoblash ko'rsatkichlarini mazkur Metodikaga 9-ilovadagi sxemaga asosan muvofiqlashtiruvchi organga har yili 10-martga qadar rasmiy tartibda yuboradi.

To'plangan ballarni hisoblash natijalarining haqqoniyligi yoki asoslilikiga shubha uyg'otuvchi holat mavjudligi aniqlangan taqdirda, ular muvofiqlashtiruvchi organ tomonidan qayta o'rganib chiqilishi mumkin.

13. Agentlik har yili 20-martga qadar barcha indikatorlar bo'yicha to'plangan ballarning hisoblash ko'rsatkichlarini davlat organlari va tashkilotlari kesimida umumlashtirib, Ochiqlik indeksini hisoblash natijalarini ko'rib chiqish uchun Ochiqlikni ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholash komissiyasiga (keyingi o'rinlarda — Baholash komissiyasi) taqdim etadi.

Agentlik Baholash komissiyasi ixtiyoriga Ochiqlik indeksini hisoblash natijalari bilan birga quyidagilarni qamrab olgan o'z xulosasini taqdim etadi:

baholash yilida ochiqlikni ta'minlash sohasida yuqori samaradorlikka erishgan davlat organlari va tashkilotlari, ularning amaliyotga samarali joriy etgan ijobiy ish tajribasi;

yuqori samaradorlikka erishgan davlat organlari va tashkilotlarining mas'ul xodimlarini rag'batlantirish bo'yicha takliflar;

baholash yilida eng past natijalarni qayd etgan davlat organlari va tashkilotlari, ularning indikator va mezonlar kesimida ijro etmagan ko'rsatkichlari hamda yo'l qo'ygan kamchiliklari tahlili;

kamchiliklarga yo'l qo'ygan mas'ul xodimlarga nisbatan intizomiy jazo chorasini qo'llash va ularning ushbu yo'nalishdagi faoliyatini yaxshilash bo'yicha ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar dasturi bo'yicha takliflar;

chuqur tahlillar asosida davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ochiqlikni ta'minlash faoliyatida yo'l qo'yib kelinayotgan huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, sohada ilg'or xalqaro standartlarni keng joriy etish orqali samaradorlik hamda natijadorlikni yanada oshirish choralari bo'yicha takliflar;

joriy yilda ochiqlikni ta'minlash sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar, rejalashtirilgan loyihalar, hudud va tarmoqlarga mazkur faoliyatga taalluqli dasturlarini yuqori saviyada ijro qilish yuzasidan taklif va tavsiyalar.

14. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining Ochiqlik indeksini hisoblash natijalari Baholash komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

15. Baholash komissiyasi tarkibiga nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari ham kiritilishi mumkin.

16. Agentlik direktori Baholash komissiyasining raisi hisoblanib, uning faoliyatini muvofiqlashtirib boradi.

17. Baholash komissiyasi kamida yetti nafar a'zodan iborat tarkibda Agentlik, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi, Moliya vazirligi va Davlat statistika qo'mitasining tavsiyasi asosida Agentlik direktori tomonidan tasdiqlanadi.

18. Baholash komissiyasi toq sonli a'zodan iborat bo'ladi, uning a'zolari tarkibi va soni baholash yo'nalishlari hamda indikator ko'rsatkichlarini hisoblash usullari inobatga olingan holda o'zgartirilishi mumkin.

19. Baholash komissiyasi a'zolari xolis bo'lishi va baholash yakunlaridan shaxsan manfaatdor bo'lmasligi kerak.

20. Baholash komissiyasi ishiga rais rahbarlik qiladi. U Baholash komissiyasining reglamentini tasdiqlaydi, majlislarini chaqiradi va olib boradi, ovozga qo'yishni tashkillashtiradi va qabul qilingan qarorlarni e'lon qiladi, shuningdek, Baholash komissiyasi majlislarining bayonnomalarini imzolaydi. Baholash komissiyasi raisi yo'qligida uning vazifalarini o'rinbosari bajaradi.

21. Baholash komissiyasi raisining o‘rinbosari Agentlik direktorining tavsiyasi bilan komissiya qarori asosida tayinlanadi va vazifasidan ozod qilinadi.

22. Baholash komissiyasining tezkor faoliyatini uning ovoz berish huquqiga ega bo‘lmagan kotibi tashkil etadi.

23. Qoidaga ko‘ra, Baholash komissiyasi kotibi Agentlik mas‘ul xodimlari orasidan komissiya qarori asosida tayinlanadi va vazifasidan ozod qilinadi.

24. Baholash komissiyasining ishchi organi vazifa va vakolatlari Agentlik tomonidan amalga oshiriladi.

25. Baholash komissiyasining har bir a‘zosi Ochiqlik indeksini hisoblash natijalari bo‘yicha ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin. Baholash komissiyasining raisi ovoz berishda ishtirok etishdan bosh tortish huquqiga ega emas.

26. Baholash komissiyasining majlislari a‘zolari hozirligida yuzma-yuz o‘tkaziladi.

27. Baholash komissiyasi davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining Ochiqlik indeksi yuzasidan yakuniy qarorni ochiq ovoz berish yo‘li bilan qabul qiladi.

28. Baholash komissiyasi majlislariga baholash jarayonida yuzaga kelgan noaniqlik va boshqa zarur deb topilgan hollarda vazirlik va idoralarning ekspertlari, shuningdek, boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralarning mutaxassislari taklif etilishi mumkin.

29. Baholash komissiyasi qarori komissiya a‘zolari umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

30. Ovozlar teng bo‘lganda, Baholash komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

31. Baholash komissiyasi qarorlari uning a‘zolarining kamida yarmi ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

32. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining Ochiqlik indeksi har yil yakunlariga ko‘ra (keyingi yilning 1-apreliga qadar) Agentlik tomonidan “eanticor.uz” elektron platformasi va ommaviy axborot vositalari orqali ochiq e‘lon qilinadi.

33. Agentlik Baholash komissiyasi qarori bilan tasdiqlangan davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining Ochiqlik indeksini hisoblash natijalari va tahliliy ma‘lumotlarini har yili 15-aprelga qadar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga kiritib boradi.

### **3-bob. Ochiqlik indeksini hisoblash tartibi**

34. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasi aniqlanadigan indikatorlar miqdoriga qarab “0” balldan “100” ballgacha baholanib, Ochiqlik indeksi “yashil”, “sariq” va “qizil” toifalarga ajratiladi.

35. Indikatorlarni baholash natijalariga muvofiq, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasi reyting bali bo‘yicha:

71 balldan 100 ballgacha bo‘lganda — “yashil”;

55 balldan 71 ballgacha bo‘lganda — “sariq”;

55 balldan past bo‘lganda — “qizil” deb topiladi.

36. Baholash indikatorlari bo‘yicha ballar quyidagicha taqsimlanadi:

birinchi indikator — maksimal 10 ball;

ikkinchi indikator — maksimal 25 ball;

uchinchi indikator — maksimal 21 ball;

to‘rtinchi indikator — maksimal 6 ball;

beshinchi indikator — maksimal 10 ball;

oltinchi indikator — maksimal 4 ball;

yettinchi indikator — maksimal 16 ball;

sakkizinchi indikator — maksimal 8 ball;

37. Yakuniy ball mazkur Metodikaning 2-bobida ko‘rsatilgan indikatorlardagi ballarni bir-biriga qo‘shish orqali aniqlanadi.

### **4-bob. Ochiqlik indeksini hisoblash natijalari bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar**

38. Baholash komissiyasi bayoni bilan:

“yashil” toifadagi davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikni ta’minlash borasidagi ijobiy tajribasini ommaviy axborot vositalari orqali ommalashtirish chora-tadbirlari amalga oshiriladi;

“yashil” toifadagi davlat organlari va tashkilotlarining mas’ul xodimlarini budget va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan bir oylik lavozim maoshining 50 foizi miqdorida (bir martalik) rag’batlantirish bo’yicha taklif kiritib boriladi;

“sariq” toifadagi davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikni ta’minlash sohasidagi faoliyatini yanada yaxshilash bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqish, ularni amalga oshirishda ko’maklashish va amaliy yordam berish choralari ko’riladi;

“qizil” toifadagi davlat organlari va tashkilotlarining mas’ul xodimlariga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda intizomiy jazo chorasini qo’llash haqida taklif kiritib boriladi;

ochiqlikni ta’minlashda tizimli ravishda yo’l qo’yilayotgan kamchiliklarni aniqlash, bartaraf etish hamda ularning ushbu yo’nalishdagi faoliyatini yaxshilash bo’yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqiladi.

### 5-bob. Yakunlovchi qoida

39. Ushbu Metodika talablarini buzgan aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo’ladi.

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini monitoring qilish va baholash bo’yicha  
metodikaga  
1-ILOVA

### Davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlikni ta’minlashga mas’ul bo’lgan xodimlar faoliyatining samaradorligini

#### BAHOLASH MEZONLARI

T/r	Baholash mezonlari
1	2
<b>Matbuot anjumanlari, brifinglar, press-turlar, taqdimotlar hamda boshq</b>	
1.	6 va undan ortiq tadbir
	5 ta tadbir
	4 ta tadbir
	3 ta tadbir
	2 va undan kam tadbir
<b>Ijtimoiy tarmoqlarda onlayn translatsiyalar soni</b>	
2.	6 va undan ortiq onlayn translatsiya
	5 ta onlayn translatsiya
	4 ta onlayn translatsiya
	3 ta onlayn translatsiya
	2 va undan kam onlayn translatsiya
<b>Matbuot anjumanlari, brifinglar va boshqa tadbirlarda rahbarlar ishtiroki</b>	
3.	rahbar ishtirok etsa
	rahbarning birinchi o‘rinbosari ishtirok etsa
	rahbarning o‘rinbosari ishtirok etsa
	rahbarlar ishtirok etmasa
<b>Axborotni yetkazib berish shakli (har oyda kamida bir marta)</b>	
4.	infografika tarzida
	foto, video shaklida
	matn shaklida
	axborot e’lon qilinmasa

<b>Axborotning qamrovi</b>	
5.	radio, televideniye, gazeta, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va veb-saytda e'lon qilinishi
	faqat ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va veb-saytda e'lon qilinishi
	faqat radio, televideniye va gazetada e'lon qilinishi
	radio, televideniye, gazeta, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar yoki veb-saytda e'lon qilinishi
axborot e'lon qilinmasa	
<b>Sohaga oid muammolarni yoritish</b>	
6.	birinchi manba sifatida yoritish
	e'lon qilingan tanqidiy materialga munosabat bildirish
	birinchi manba sifatida yoritmasa yoki e'lon qilingan tanqidiy materialga munosabat bildirmasa
<b>Tanqidiy materiallarga munosabat bildirishning tezligi</b>	
7.	tanqidiy material e'lon qilingan vaqtdan boshlab 5 soat ichida
	tanqidiy material e'lon qilingan vaqtdan boshlab 12 soat ichida
	tanqidiy material e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida
	tanqidiy material e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soatdan keyin
<b>Tadbirlar haqidagi axborotlarning rasmiy veb-sayt, messenjer va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinishi</b>	
8.	tadbir yakunlangandan keyin 1 soat ichida
	tadbir yakunlangandan keyin 5 soat ichida
	tadbir yakunlangandan keyin 12 soat ichida
	tadbir yakunlangandan keyin 12 soatdan keyin
<b>Rahbar yoki axborot xizmati rahbarining muayyan axborot voqeligi munosabatida e'lon qilinishi</b>	
9.	video formatida
	matn shaklida
	bayonot berilmasa
<b>Xorijiy ommaviy axborot vositalarida materiallar e'lon qilinishi</b>	
10.	tashkilot faoliyati haqida xorijiy ommaviy axborot vositalarida materiallar e'lon qilinsa
	tashkilot faoliyati haqida xorijiy ommaviy axborot vositalarida materiallar e'lon qilinmasa
<b>Mezonlar soni</b>	
<b>Umumiy ball</b>	

$$Ж = \frac{y}{10}$$

**Indikator bo'yicha ballarni hisoblash tartibi:**

**Bunda:**

**U** — davlat organi yoki tashkilotining matbuot kotibi tomonidan joriy baholash davrida barcha mezonlar baholash soni

**10** — axborot xizmati rahbarining faoliyati samaradorligini baholash mezonlari soni (*joriy baholash davrida baholash mezonlari soniga bo'lingan ball*)

**J** — jami hisoblangan ball (*joriy baholash davrida to'plangan ballar baholash mezonlari soniga bo'lingan ball*)

**Izoh:**

1. Indikator bo'yicha to'plangan umumiy ballar Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan jamlanib, Davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqqligini monitoring qilish va baholash bo'yicha metodikaga 9-ilova bilan tasdiqlangan sxemada ko'rsatilgan muddatlarda muvofiqlashtiruvchi organga taqdim qilinadi.

Muvofiqlashtiruvchi organ tomonidan umumiy to'plangan ballar indikatorida ko'rsatilgan mezonlar soniga bo'linib, jamlangan holda Baholash komissiyasiga taqdim qilinadi.

2. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi mazkur mezonlar doirasidan chetga chiqmagan holda, o'z baholash ko'rsatkichlarini asoslantirishga qaratilgan qo'shimcha jadvallarni ishlab chiqishi va foydalanishi mumkin.

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqqligini monitoring qilish va baholash bo'yicha metodikaga  
2-ILOVA

**Davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlarida axborotlarni joylashtirish va elektron davlat xizmatlari ko'rsatish holatini**

**BAHOLASH MEZONLARI**

<b>T/r</b>	<b>Baholash mezonlari</b>	<b>Ballar</b>	<b>To'plangan ball</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>
<b>Qayta aloqa tizimining samarali yo'lga qo'yilganlik darajasi</b>			
1.	faoliyat sohasiga oid aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan tez-tez beriladigan savollarga javoblar uchun alohida sahifa tashkil etilib, ularga qonunchilik hujjatlari asosida asoslantirilgan va o'z vaqtida javoblar e'lon qilib borilsa	1	
	sahifadagi ma'lumotlarni har uch oyda yangilab borish tartibiga rioya qilinmasa	0,5	
	sahifa tashkil etilmagan bo'lsa	0	
<b>Tashkilot faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni e'lon qilish darajasi</b>			
2.	o'z faoliyatiga taalluqli bo'lgan (huquqiy maqomini, shu jumladan tarkibiy bo'linmalari va idoraviy mansub tashkilotlarning tashkiliy tuzilmasi, vazifa va funksiyalarini belgilaydigan) normativ-huquqiy hujjatlar to'liq e'lon qilinsa	1	
	to'liq e'lon qilinmasa yoki ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar hujjat qabul qilingan kundan boshlab yetti kun muddatda yangilanmagan bo'lsa	0,5	
	hujjatlar e'lon qilinmasa	0	
<b>Ichki idoraviy hujjatlarni e'lon qilish darajasi</b>			
3.	qabul qilingan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar, shu jumladan tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro munosabatlarga oid masalalar, davlat xizmatlarini hamda xizmatlarning boshqa turlarini ko'rsatish tartibi, muddatlari va qiymatini tartibga soluvchi hujjatlar e'lon qilinsa	1	
	to'liq hajmda e'lon qilinmasa yoki ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar hujjat rasman e'lon qilingandan keyin bir kundan kechiktirib e'lon qilinsa	0,5	
	hujjatlar e'lon qilinmasa	0	
<b>O'z kuchini yo'qotgan normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi</b>			
4.	oldin qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risidagi ma'lumotlar hujjat qabul qilingan kundan boshlab yetti kun muddatda e'lon qilinsa	1	
	hujjatning o'z kuchini yo'qotganligi to'g'risidagi ma'lumotlar yetti kun muddatdan keyin e'lon qilinsa	0,5	
	ma'lumotlar e'lon qilinmasa	0	
<b>Tasdiqlangan dasturlar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi</b>			
5.	O'zbekiston Respublikasining Prezidenti va Hukumat tomonidan davlat organi va tashkiloti faoliyati sohasida tasdiqlangan dasturlar va ularning ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilinsa	1	
	dasturlarning ijrosi haqidagi ma'lumotlarni bir haftada kamida bir marta yangilanib borish tartibiga rioya qilinmagan bo'lsa	0,5	
	ma'lumotlar e'lon qilinmasa	0	
<b>Ommaviy tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi</b>			
6.	o'tkazilgan va o'tkazilishi rejalashtirilgan ommaviy tadbirlar (majlislar, yig'ilishlar, uchrashuvlar, matbuot anjumanlari, seminarlar va brifinglar,	1	

	davra suhbatlari, rasmiy tashriflar) to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, kundalik faoliyat to'g'risidagi boshqa axborotlar e'lon qilinsa		
	o'tkazilishi rejalashtirilgan ommaviy tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlar tadbir o'tkazilishidan bir sutka oldin e'lon qilinmasa	0,5	
	ma'lumotlar e'lon qilinmasa	0	
<b>Bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi</b>			
7.	bo'sh ish o'rinlari, ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qo'yiladigan talablar va taqdim qilinishi lozim bo'lgan hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilinsa	1	
	ma'lumotlar to'liq hajmda e'lon qilinmasa	0,5	
	ma'lumotlar e'lon qilinmasa	0	
<b>Ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi</b>			
8.	ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari bilan birga ularning ishlab chiqilishi va idoralararo kelishuvi, shuningdek, muhokamasi o'tkaziladigan elektron tizimlardagi (portal, platforma) havolasi haqidagi ma'lumotlar (loyihaning pasport ma'lumotlari) e'lon qilinsa	1	
	ma'lumotlar hujjatlarning rasmiy veb-sayt yoki elektron tizimlardagi havolalarini kiritish to'g'risidagi talablar buzilgan holda e'lon qilinsa	0,5	
	ma'lumotlar e'lon qilinmasa	0	
<b>Muvofiqlashtiruvchi va maslahat organlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi</b>			
9.	tashkil etilgan muvofiqlashtiruvchi va maslahat organlari (komissiyalar, kengashlar, qo'mitalar va boshqalar) to'g'risidagi ma'lumotlar to'liq e'lon qilinsa	1	
	muvofiqlashtiruvchi va maslahat organlari tarkibi haqidagi ma'lumotlarni yangilab borishga oid talablar (o'zgartirish kiritish haqidagi qaror qabul qilingan kundan boshlab bir hafta muddat ichida) buzilgan holda e'lon qilinsa	0,5	
	ma'lumotlar e'lon qilinmasa	0	
<b>Davlat organlari va tashkilotlari hamda ularning hududiy tuzilmalari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi</b>			
10.	davlat organlari va tashkilotlari tuzilmasining sxematik tasviri, shu jumladan hududiy organlari vazifalari va funksiyalarining tavsifi, hududiy organlar rahbarlarining familiyasi, ismi va otasining ismi hamda aloqa ma'lumotlari (telefon raqami, pochta, elektron manzili va boshqalar) to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilinsa	1	
	ma'lumotlar to'liq hajmda e'lon qilinmasa	0,5	
	ma'lumotlar e'lon qilinmasa	0	
<b>Idoraviy bo'ysunuvdagi tashkilotlarning veb-saytiga havolalar mavjudligi</b>			
11.	o'z rasmiy veb-saytida idoraviy bo'ysunuvdagi tashkilotlarning veb-saytlariga havolalar mavjudligi	1	
	idoraviy bo'ysunuvdagi tashkilotlarning veb-saytlariga havolalar ishchi holatda bo'lmasa	0,5	
	havolalar joylashtirilmasa	0	
<b>Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilinishi</b>			
12.	jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi (rahbarning qabul kunlari, murojaatlar bilan ishlash bo'yicha tarkibiy	1	

	bo‘linmalarining telefon raqamlari, manzilli rekvizitlar (pochta, elektron manzili va boshqalar), ma‘lumotlar berish xizmati, “ishonch telefonlari”ning raqamlari, kirish yo‘llari, to‘xtash joylari, jamoat transporti raqamlari va javob xatlarini olish usullari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar e‘lon qilinsa		
	ma‘lumotlar to‘liq bo‘lmagan yoki yangilab borish muddatlariga rioya qilinmagan holda e‘lon qilinsa	0,5	
	ma‘lumotlar e‘lon qilinmasa	0	
<b>Murojaatlarning umumlashtirilgan natijalarini e‘lon qilib borish darajasi</b>			
13.	real vaqt rejimida murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqida umumlashtirilgan ma‘lumotlar (umumiy ko‘rib chiqilgan, shundan qanoatlantirilgan, tushuntirish berilgan, rad qilingan, taalluqliligi bo‘yicha yuborilgan, anonim deb topilgan va ko‘rib chiqilayotgan murojaatlar) e‘lon qilinsa	1	
	ma‘lumotlar qisman e‘lon qilinsa	0,5	
	ma‘lumotlar e‘lon qilinmasa	0	
<b>Boshqa rasmiy veb-saytlar va Hukumat portaliga havolalarning mavjudligi</b>			
14.	Internet tarmog‘idagi o‘ntadan kam bo‘lmagan veb-sayt va O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portaliga havolalar mavjud bo‘lsa	1	
	beshtadan kam bo‘lmagan veb-sayt va Hukumat portaliga havolalar mavjud bo‘lsa	0,5	
	havolalar mavjud bo‘lmasa	0	
<b>Dolzarb mavzularga oid ma‘lumotlar to‘plamining alohida bo‘limga tizimlashtirilishi</b>			
15.	ijtimoiy ahamiyatga molik ochiq ma‘lumotlar, korrupsiyaga qarshi kurashish, ochiq budjet va elektron davlat xizmatlari alohida bo‘limda joylashtirilsa	1	
	belgilangan ma‘lumotlar bo‘limlarga to‘liq bo‘lmagan shaklda joylashtirilsa	0,5	
	ma‘lumotlar bo‘limlarga tizimlashtirilmagan bo‘lsa	0	
<b>Matbuot xizmati va veb-sayt uchun mas‘ul bo‘lgan xodimlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning mavjudligi</b>			
16.	matbuot xizmati va rasmiy veb-saytga axborotlarni joylashtirish va yangilash uchun javobgar xodimning aloqa ma‘lumotlari (famiyasi, ismi va otasining ismi, telefon, pochta va elektron manzillari)	1	
	ma‘lumotlar to‘liq joylashtirilmasa	0,5	
	ma‘lumotlar joylashtirilmasa	0	
<b>Ma‘lumotlarni boshqa tillarga sinxronlash funksiyalarining mavjudligi</b>			
17.	rasmiy veb-saytdagi barcha sahifalar va ularga joylashtirilgan ma‘lumotlarni xorijiy tillarga (rus va ingliz) sinxron tarjima qilish funksiyasi mavjud bo‘lsa (zaruratga ko‘ra, kundalik berib boriladigan xabar tarzidagi ma‘lumotlar)	1	
	xorijiy tillarga sinxron tarjima qilish funksiyasi qisman mavjud bo‘lsa	0,5	
	sinxron tarjima qilish funksiyasi mavjud bo‘lmasa	0	
<b>Rasmiy veb-saytning mobil versiyasi mavjudligi</b>			
18.	mobil qurilmalar uchun soddalashtirilgan dizayndagi yoki sahifalar moslashtirilgan veb-sayt versiyasining mavjudligi	1	
	soddalashtirilgan dizayn va sahifalar to‘liq moslashtirilgan bo‘lsa	0,5	
	veb-saytning ushbu versiyalari mavjud bo‘lmasa	0	
<b>Yangi ma‘lumotlar bilan interaktiv usulda tanishish imkoni mavjudligi</b>			

19.	veb-saytdagi yangiliklar va yangilashlarga, shu jumladan yangilashlar va yangiliklarni yetkazib berishning ommabop avtomatlashtirilgan formatlari (SMS yoki PUSN xabar) orqali obuna bo'lish imkoniyati mavjud bo'lsa	1	
	yangiliklar va yangilashlar haqida avtomatlashtirilgan formatlar to'liq tashkil etilmagan bo'lsa	0,5	
	obuna bo'lish imkoniyati mavjud bo'lmasa	0	
<b>Jamoatchilik fikrini o'rganish vositalarining joriy etilganligi</b>			
20.	o'z faoliyatiga tegishli masalalarni muhokama qilish maqsadida jamoatchilik fikrini o'rganish vositalari (onlayn-so'rovlar, bloglar, forumlar, onlayn-chat) joriy etilib, ularning natijalari to'g'risida hisobotlar e'lon qilinsa	1	
	jamoatchilik fikrini o'rganish vositalari qisman joriy etilgan bo'lsa yoki hisobotlar e'lon qilinmasa	0,5	
	so'rovnoma o'tkazilmasa	0	
<b>Veb-saytda ma'lumotlarni qidirishning soddalashtirilgan usullari mavjudligi</b>			
21.	veb-sayt xaritasi mavjud bo'lsa va iyerarxik strukturasi foydalanuvchining joylashgan joyi aks ettirilsa	1	
	qisman tashkil etilgan bo'lsa	0,5	
	tashkil etilmagan bo'lsa	0	
<b>Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun veb-saytdan foydalanish qulayligi</b>			
22.	imkoniyati cheklangan shaxslar uchun rasmiy veb-saytdan foydalanish uchun tashkil etilgan xizmatlar (veb-saytdagi matnni tovush jo'rligida berish imkoniyati, audio va videomateriallarning matn yoki surdotarjima kuzatuv) mavjud bo'lsa	1	
	xizmatlar qisman tashkil etilgan bo'lsa	0,5	
	xizmatlar tashkil etilmagan bo'lsa	0	
<b>Ko'rish qobiliyati cheklangan shaxslar uchun veb-saytdan foydalanish qulayligi</b>			
23.	ko'rish qobiliyati cheklangan shaxslar uchun veb-saytdan foydalanish uchun tashkil etilgan xizmatlar (ko'rish qobiliyati zaiflashgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash, standart ranglarni muayyan foydalanuvchi ko'radigan ranglarga o'zgartirish imkonini beradigan rangli sozlamalardan foydalanish, shrift va interfeys elementlarini masshtablash) mavjud bo'lsa	1	
	xizmatlar qisman tashkil etilgan bo'lsa	0,5	
	xizmatlar tashkil etilmagan bo'lsa	0	
<b>Axborotlarning sanasini ko'rsatish tartibiga rioya qilinishi</b>			
24.	rasmiy veb-saytga joylashtirilayotgan barcha axborot va ma'lumotlarning sanasi ko'rsatilishi tartibiga rioya qilingan bo'lsa	1	
	sanani ko'rsatish tartibiga barcha ma'lumot yoki axborotlarni joylashtirishda to'liq rioya qilinmasa	0,5	
	sanasi ko'rsatilmagan bo'lsa	0	
<b>"Onlayn maslahatchi" xizmatining tashkil etilganligi</b>			
25.	tashkilot faoliyatiga, shuningdek, rasmiy veb-saytga ma'lumotlarni joylashtirish va elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishga oid savollarga real vaqt rejimida javob olish imkonini beruvchi "Onlayn maslahatchi" xizmati mavjud bo'lsa	1	
	xizmat orqali yo'llangan savollarga javob berish mexanizmlari to'liq faoliyat ko'rsatmasa	0,5	
	xizmat yo'lga qo'yilmasa	0	

<b>Mezonlar soni</b>	<b>25 ta</b>
<b>Indikatorlar bo'yicha umumiy ball</b>	<b>25</b>

Izoh:

1. Indikatorning barcha baholash mezonlaridagi ma'lumotlar (axborotlar) hamda ko'rsatiladigan elektron davlat xizmatlari davlat organlari va tashkilotlari tomonidan o'z rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi yoki ko'rsatilishi darajasi bo'yicha baholanadi (davlat sirlari va xizmat doirasida foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno).

2. Har bir baholash mezonining birinchi bandida belgilangan barcha talablar to'liq bajarilmagan, yangilab borish davriyligiga rioya qilinmagan, hajmining to'liq emasligi yoki noto'g'ri ma'lumotlar kiritilgan, shuningdek, foydalanish qulayligi talablariga rioya qilinmagan taqdirda, jamlangan umumiy foiz ko'rsatkichidan 1 ball dan 3 ballgacha ayirib tashlanishi mumkin.

3. Indikator bo'yicha to'plangan umumiy ballar Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi tomonidan jamlanib, Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqqligini monitoring qilish va baholash bo'yicha metodikaga 9-ilova bilan tasdiqlangan sxemada ko'rsatilgan muddatlarda muvofiqlashtiruvchi organga taqdim qilinadi.

Muvofiqlashtiruvchi organ tomonidan umumiy to'plangan ballar indikatorida ko'rsatilgan mezonlar soniga bo'linib, jamlangan holda Baholash komissiyasiga taqdim qilinadi.

4. Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi mazkur mezonlar doirasidan chetga chiqmagan holda, o'z baholash ko'rsatkichlarini asoslantirishga qaratilgan qo'shimcha jadvallarni ishlab chiqishi va foydalanishi mumkin.

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqqligini monitoring qilish va baholash bo'yicha  
metodikaga  
3-ILOVA

### Ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni qonunchilikda belgilangan axborot resurslarida e'lon qilish va jamoatchilik oldida hisobdorlik tizimining yo'lga qo'yilishini

#### BAHOLASH MEZONLARI

T/r	Baholash mezonlari	Ballar	To'plangan ball
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>
<b>O'z faoliyatiga oid hisobotlarni e'lon qilish holati</b>			
1.	har yili 1-martga qadar o'z faoliyatiga oid hisobotlar rasmiy veb-saytida e'lon qilinsa	1	
	hisobotlar ularni e'lon qilish muddatiga qo'yilgan talablarni buzgan holda e'lon qilinsa	0,5	
	hisobotlar e'lon qilinmasa	0	
<b>Hisobotlarni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish joyi va vaqti haqidagi ma'lumotlarni e'lon qilish</b>			
2.	har yili 10-martga qadar o'z faoliyatiga oid hisobotlarni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish joyi va vaqti haqida ma'lumotlar e'lon qilinsa	1	
	muhokama joyi va vaqtini e'lon qilish muddatiga qo'yilgan talab buzib e'lon qilinsa	0,5	
	e'lon qilinmasa	0	
<b>Hisobotlarni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish holati</b>			
3.	har yili 1-aprelga qadar o'z faoliyatiga oid hisobotlarni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish uchun matbuot anjumanlarini o'tkazsa	1	
	matbuot anjumanlarini ularni o'tkazish muddatiga qo'yilgan talabni buzib o'tkazsa	0,5	
	matbuot anjumanlarini o'tkazmasa	0	
<b>Tasdiqlangan ish rejalar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi</b>			

4.	davlat organlari va tashkilotlarining tasdiqlangan yarim yillik va yillik ish rejaları e'lon qilinsa	1	
	to'liq bo'lmagan yoki yangilab borish muddatlariga rioya qilinmagan holda e'lon qilinsa	0,5	
	ish rejalar e'lon qilinmasa	0	
<b>Hisobot (hay'at) yig'ilishlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi</b>			
5.	yil davomida o'tkazilgan hisobot (hay'at) yig'ilishlarining videoyozuvlari va bayonnomalari e'lon qilinsa	1	
	to'liq bo'lmagan yoki yangilab borish muddatlariga rioya qilinmagan holda e'lon qilinsa	0,5	
	videoyozuv va bayonnomalar e'lon qilinmasa	0	
<b>Mansabdor shaxslarning xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi</b>			
6.	mansabdor shaxslarning xizmat safarlari va xorijdan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish xarajatlari haqidagi ma'lumotlar (xizmat safarining yoki tashrifning maqsadi, turi, moliyalashtirish manbai, sutkalik pul, transport va yashash bilan bog'liq xarajatlar) e'lon qilinsa	1	
	ma'lumotlar to'liq bo'lmagan yoki yangilab borish muddatlariga rioya qilinmagan holda e'lon qilinsa	0,5	
	ma'lumotlar e'lon qilinmasa	0	
<b>Avtomototransport vositalari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi</b>			
7.	tasarrufidagi xizmat avtomototransport vositalari to'g'risidagi ma'lumotlar (soni, rusumi, davlat raqami, ishlab chiqarilgan yili, balansga olingan vaqti va qiymati, saqlash xarajatlari, hisobot davrida harakatlangan masofasi) ochiq e'lon qilinsa	1	
	ma'lumotlar to'liq bo'lmagan yoki yangilab borish muddatlariga rioya qilinmagan holda e'lon qilinsa	0,5	
	ma'lumotlar e'lon qilinmasa	0	
<b>Xizmat uylari va boshqa ko'chmas mulklar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi</b>			
8.	tasarrufidagi xizmat uylari va boshqa ko'chmas mulklar to'g'risidagi ma'lumotlar (soni, joylashgan manzili, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kadastr raqami, balansga olingan vaqti, qiymati, qayta baholangan narxi va saqlash xarajatlari) ochiq e'lon qilinsa	1	
	ma'lumotlar to'liq bo'lmagan yoki yangilab borish muddatlariga rioya qilinmagan holda e'lon qilinsa	0,5	
	ma'lumotlar e'lon qilinmasa	0	
<b>Xarajatlar smetasi to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi</b>			
9.	tasdiqlangan yillik xarajatlar smetasi bilan bir qatorda, uning ijrosi, shu jumladan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash ishlari, avtomototransport vositalarini sotib olish va saqlash xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar ochiq e'lon qilinsa	1	
	ma'lumotlar to'liq bo'lmagan yoki yangilab borish muddatlariga rioya qilinmagan holda e'lon qilinsa	0,5	
	ma'lumotlar e'lon qilinmasa	0	
<b>Budjet hamda budjetdan tashqari jamg'armalar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi</b>			
10.	budjet hamda budjetdan tashqari jamg'armalarning tushumlari va xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilinsa	1	
	ma'lumotlar to'liq bo'lmagan yoki yangilab borish muddatlariga rioya qilinmagan holda e'lon qilinsa	0,5	
	ma'lumotlar e'lon qilinmasa	0	
<b>Davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi</b>			

11.	amalga oshirilgan har bir davlat xaridi (auksi <sup>o</sup> n, elektron do‘kon, milliy do‘kon, eng yaxshi taklifni tanlash, tender va to‘g‘ridan to‘g‘ri xarid) to‘g‘risidagi ma‘lumotlar (lot raqami, xarid turi, miqdori, moliyalashtirish manbai, yetkazib beruvchi nomi va STIR raqami, xarid boshlang‘ich qiymati, xarid amalga oshirilgan qiymat, shartnoma raqami va sanasi, yetkazib berish muddati, to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnoma asosida sotib olishning asosi) e‘lon qilinsa	1	
	ma‘lumotlar to‘liq bo‘lmagan yoki yangilab borish muddatlariga rioya qilinmagan holda e‘lon qilinsa	0,5	
	ma‘lumotlar e‘lon qilinmasa	0	
<b>Davlat xaridini rejalashtirish to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning e‘lon qilinishi</b>			
12.	davlat budjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari va budget tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘arma mablag‘lari hisobiga xarid qilinishi rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) to‘g‘risidagi ma‘lumotlar (xarid e‘lon qilinishidan kamida 6 oy oldin) e‘lon qilinsa	1	
	ma‘lumotlar to‘liq bo‘lmagan yoki xarid amalga oshirilishidan oldin e‘lon qilish belgilangan muddatlarga rioya qilinmagan holda e‘lon qilinsa	0,5	
	ma‘lumotlar e‘lon qilinmasa	0	
<b>Xarid komissiyasi tarkibi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning e‘lon qilinishi</b>			
13.	davlat xaridlari va investitsiya loyihalari doirasida hamda ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish bo‘yicha tashkil etiladigan xarid komissiyalarining tarkibi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar (xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash haqidagi qaror, xarid komissiyasi a‘zolarining ma‘lumotlari, shu jumladan familiyasi, ismi va otasining ismi, ish joyi va egallab turgan lavozimi) e‘lon qilinsa	1	
	ma‘lumotlar to‘liq bo‘lmagan yoki yangilab borish muddatlariga rioya qilinmagan holda e‘lon qilinsa	0,5	
	ma‘lumotlar e‘lon qilinmasa	0	
<b>Davlat xaridlarini amalga oshirishga oid tartib-taomillar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning e‘lon qilinishi</b>			
14.	davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini belgilovchi ichki idoraviy hujjat hamda davlat xaridlariga oid shikoyatlarni ko‘rib chiquvchi komissiya a‘zolari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar (komissiya tarkibini tasdiqlash haqidagi qaror, xarid komissiyasi a‘zolarining ma‘lumotlari, shu jumladan familiyasi, ismi va otasining ismi, ish joyi va egallab turgan lavozimi) e‘lon qilinsa	1	
	ma‘lumotlar to‘liq bo‘lmagan yoki yangilab borish muddatlariga rioya qilinmagan holda e‘lon qilinsa	0,5	
	ma‘lumotlar e‘lon qilinmasa	0	
<b>Ochiqlik sohasini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning e‘lon qilinishi</b>			
15.	har yili ochiqlik sohasidagi o‘z faoliyatini takomillashtirish yoki ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha 3 tadan kam bo‘lmagan takliflar ishlab chiqib, ochiq e‘lon qilinsa	1	
	har yili 2 tadan kam bo‘lmagan takliflar ishlab chiqib, e‘lon qilingan bo‘lsa	0,5	
	taklif e‘lon qilinmasa	0	
<b>O‘zini o‘zi baholash tartibi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning e‘lon qilinishi</b>			
16.	davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan mahalliy davlat hokimiyati organlari har yil yakuni bo‘yicha o‘z tasarrufidagi tarkibiy	1	

	tarmoqlar, muassasa, korxonalar va tashkilotlar hamda quyi organlarda ochiqlikni ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholash tizimini joriy etib, yakuniy hisobotlar ochiq e'lon qilib borilsa		
	yakuniy hisobotlar asoslantirilmagan, qamrovi to'liq bo'lmagan yoki aniqlangan muammolarni oldini olishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilmagan holda e'lon qilinsa;	0,5	
	tizim joriy etilmagan va hisobotlar e'lon qilinmagan bo'lsa	0	
<b>Ochiqlik sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi</b>			
17.	ochiqlikni ta'minlash haqidagi qonunchilik talablari buzilganligi yuzasidan shikoyat qilish mexanizmlari (tartibi) ishlab chiqilib, bu haqdagi ma'lumotlar (ushbu toifadagi shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun mas'ul shaxs biriktirilganligi, alohida aloqa kanallari, shu jumladan qayta aloqaning interaktiv	1	
	yo'llari mavjudligi, murojaatni kollegial tartibda yoki rahbariyat darajasida ko'rib chiqish tartibi o'rnatilganligi) ochiq e'lon qilinsa		
	belgilangan ma'lumotlar to'liq shaklda e'lon qilinmasa	0,5	
	ma'lumotlar e'lon qilinmasa	0	
<b>Ochiqlikni ta'minlash sohasida qabul qilingan qonunchilik hujjatlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi</b>			
18.	ochiqlik sohasidagi qonun va qonunosti hujjatlar, shu jumladan ichki idoraviy hujjatlarning boshqa tillardagi tarjimalari (rus va ingliz) e'lon qilinsa	1	
	belgilangan tillardagi versiyalarda to'liq e'lon qilinmasa	0,5	
	hujjatlar e'lon qilinmasa	0	
<b>Ochiqlikni ta'minlash bo'yicha onlayn so'rovnoma o'tkazish blokining tashkil etilganligi</b>			
19.	o'z faoliyatida aholini qiziqtirgan masalalar, shu jumladan ochiqlikni ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan onlayn so'rovnoma o'tkazib borilsa (har yarim yilda bir marotaba)	1	
	so'rovnomani o'tkazish muddati buzilib o'tkazilsa	0,5	
	so'rovnoma o'tkazilmasa	0	
<b>Ochiq ma'lumotlar to'plamini pasportlash tartibining joriy etilganligi</b>			
20.	ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar to'plamini (rasmiy veb-saytda) bir xil identifikatsiya qilish imkonini beruvchi pasport ma'lumotlari (to'plamning nomi, identifikatsiya raqami, tarkibi, mulkdori, to'plam uchun mas'ul shaxs, mas'ul shaxsning telefon raqami va elektron pochta manzili, to'plamning ochiq ma'lumotlar portalidagi manzili, formati, dastlab joylashtirilgan sanasi, oxirgi yangilangan sanasi, davriy yangilab borish muddati hamda kalit so'zlar) asosida e'lon qilinsa	1	
	to'plamning belgilangan pasport ma'lumotlari to'liq e'lon qilinmasa	0,5	
	pasport ma'lumoti mavjud bo'lmasa	0	
<b>Ochiq ma'lumotlar to'plami va qayta aloqa samaradorligini baholash tizimining joriy etilganligi</b>			
21.	har bir ochiq ma'lumotlar to'plamining dolzarbligini baholash imkoniyati (to'plamni avtomatik baholash, so'rovlar yuborish, dolzarbligini oshirish yuzasidan takliflar qabul qilish, matn shaklida izoh qoldirish va to'plam ko'rib chiqilgan hamda ko'chirib olgan foydalanuvchilar soni) tashkil etilgan bo'lsa	1	

to'plam dolzarbligini baholashda belgilangan choralar to'liq tashkil etilmasa	0,5	
baholash imkoniyatlari mavjud bo'lmasa	0	
<b>Mezonlar soni</b>	<b>21 ta</b>	
<b>Indikator bo'yicha umumiy ball*</b>	<b>21</b>	

Izoh:

1. Indikatorning barcha baholash mezonlarida ko'rsatilgan ochiq ma'lumotlar davlat organlari va tashkilotlari tomonidan o'z rasmiy veb-saytida e'lon qilish darajasi bo'yicha baholanadi (davlat sirlari va xizmat doirasida foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno).

Bunda, indikatorning baholash mezonlarida ko'rsatilgan ma'lumotlar (axborot, blok, tizim, tartib) rasmiy veb-saytning bosh sahifasida alohida bo'limga joylashtirilishi, ma'lumotlar boshqa sahifaga (vab-manzilga) joylashtirilgan taqdirda baholash mezonini bajarilmagan deb topilishiga sabab bo'ladi.

2. Indikator bo'yicha to'plangan umumiy ballar Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan jamlanadi va Davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqqligini monitoring qilish va baholash bo'yicha metodikaga 9-ilova bilan tasdiqlangan sxemada ko'rsatilgan muddatlarda muvofiqlashtirilib, jamlangan holda Baholash komissiyasiga taqdim qilinadi.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mazkur mezonlar doirasidan chetga chiqmagan holda o'z baholash ko'rsatkichlarini asoslantirishga qaratilgan qo'shimcha jadvallar ishlab chiqishi va foydalanishi mumkin.

\*Baholash mezonlari bo'yicha ma'lumotlarni e'lon qilish va yangilab borishning qonunchilik yoki Metodikada ko'rsatilgan har bir muddatlari (davr) alohida baholab boriladi.

Indikatoridagi 6 — 11-mezonlar bo'yicha baholash ballarini yakuniy hisoblash tartibi:

$$Ж = \frac{У}{4(2)}$$

Bunda:

U — davlat organi yoki tashkilotning baholash yili davomida butun davr uchun to'plagan umumiy ballarining yig'indisi;

4 (2) — baholash mezonlarida ko'rsatilgan ma'lumot (axborot) baholash yili davomida yangilanishi lozim bo'lgan davriylik miqdori (butun davr uchun to'plagan ballar ma'lumotlarni yangilab borish davriylikiga bo'linadi);

J — jami hisoblangan ball (butun davr uchun to'plagan ballar ma'lumotlarni yangilab borish davriylikiga bo'linganida hosil bo'lgan ball).

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqqligini monitoring qilish va baholash bo'yicha  
metodikaga  
4-ILOVA

### Budget jarayonining ochiqqligini ta'minlashga oid ma'lumotlarning rasmiy veb-saytda joylashtirilishini

#### BAHOLASH MEZONLARI

T/r	Baholash mezonlari	Ballar	To'plangan ball
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>
<b>Mablag'lar taqsimoti to'g'risidagi ma'lumotning e'lon qilinishi</b>			
1.	o'z tasarrufidagi budget tashkilotlari kesimida mablag'lar taqsimoti to'g'risida ma'lumotlar belgilangan shakl va muddatda to'liq e'lon qilinsa	1	
	ma'lumotlarni e'lon qilish shakliga qo'yilgan talablar buzilib yoki belgilangan muddatdan kechikib e'lon qilinsa	0,5	
	ma'lumotlar e'lon qilinmasa	0	
<b>Kapital qo'yilmalar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalarning ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi</b>			
2.	kapital qo'yilmalar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalarning ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlar belgilangan shakl va muddatda to'liq e'lon qilinsa	1	

	ma'lumotlarni e'lon qilish shakliga qo'yilgan talablar buzilib yoki belgilangan muddatdan kechikib e'lon qilinsa	0,5	
	ma'lumotlar e'lon qilinmasa	0	
<b>Davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi</b>			
3.	o'tkazilgan eng yaxshi taklifni tanlash (tenderlar) va amalga oshirilgan davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlar belgilangan shakl va muddatda to'liq e'lon qilinsa	1	
	ma'lumotlarni e'lon qilish shakliga qo'yilgan talablar buzilib yoki belgilangan muddatdan kechikib e'lon qilinsa	0,5	
	ma'lumotlar e'lon qilinmasa	0	
<b>Asosiy vositalarning xarid qilinishi to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi</b>			
4.	asosiy vositalarni xarid qilish uchun o'tkazilgan eng yaxshi taklifni tanlash (tenderlar) va amalga oshirilgan davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlar belgilangan shakl va muddatda to'liq e'lon qilinsa	1	
	ma'lumotlarni e'lon qilish shakliga qo'yilgan talablar buzilib yoki belgilangan muddatdan kechikib e'lon qilinsa	0,5	
	ma'lumotlar e'lon qilinmasa	0	
<b>Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarning xaridi to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi</b>			
5.	kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarni xarid qilish uchun o'tkazilgan tanlovlar (tenderlar) va amalga oshirilgan davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlar belgilangan shakl va muddatda to'liq e'lon qilinsa	1	
	ma'lumotlarni e'lon qilish shakliga qo'yilgan talablar buzilib yoki belgilangan muddatdan kechikib e'lon qilinsa	0,5	
	ma'lumotlar e'lon qilinmasa	0	
<b>Qurilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi</b>			
6.	qurilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari bo'yicha o'tkazilgan tanlovlar (tenderlar) to'g'risidagi ma'lumotlar belgilangan shakl va muddatda to'liq e'lon qilinsa	1	
	ma'lumotlarni e'lon qilish shakliga qo'yilgan talablar buzilib yoki belgilangan muddatdan kechikib e'lon qilinsa	0,5	
	ma'lumotlar e'lon qilinmasa	0	
	<b>Mezonlar soni</b>	<b>6 ta</b>	
	<b>Indikatorlar bo'yicha umumiy ball</b>	<b>6</b>	

Izoh:

1. Indikatorning barcha baholash mezonlarida ko'rsatilgan ochiq ma'lumotlar davlat organlari va tashkilotlari tomonidan o'z rasmiy veb-saytida e'lon qilish darajasi bo'yicha baholanadi (davlat sirlari va xizmat doirasida foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno).

2. Har bir baholash mezonining birinchi bandida ko'rsatilgan talablar to'liq bajarilmagan, yangilab borish davriyligiga rioya qilinmagan, hajmining to'liq emasligi yoki noto'g'ri ma'lumotlar kiritilgan taqdirda, jamlangan umumiy foiz ko'rsatkichidan 1 ballgacha ayirib tashlanishi mumkin.

3. Indikator bo'yicha to'plangan umumiy ballar Moliya vazirligi tomonidan jamlanib, Davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqlikini monitoring qilish va baholash bo'yicha metodikaga 9-ilova bilan tasdiqlangan sxemada ko'rsatilgan muddatlarda muvofiqlashtiruvchi organga taqdim qilinadi.

Muvofiqlashtiruvchi organ tomonidan umumiy to'plangan ballar indikatorlarda ko'rsatilgan mezonlar soniga bo'linib, jamlangan holda Baholash komissiyasiga taqdim qilinadi.

4. Moliya vazirligi mazkur mezonlar doirasidan chetga chiqmagan holda o'z baholash ko'rsatkichlarini asoslantirishga qaratilgan qo'shimcha jadvallar ishlab chiqishi va foydalanishi mumkin.

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlikini monitoring qilish va baholash bo'yicha  
metodikaga  
5-ILOVA

## Ochiq ma'lumotlar portalida ma'lumotlar joylashtirilishini

### BAHOLASH MEZONLARI

T/r	Baholash mezonlari	Ballar	To'plangan ball
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>
<b>Ochiq ma'lumotlar portalida ma'lumotlar to'plamining e'lon qilinishi</b>			
1.	belgilangan ma'lumotlar to'plami 100 foizlik ko'rsatkichda e'lon qilinsa	2	
	71 foizdan 86 foizgacha ko'rsatkichda e'lon qilinsa	1	
	55 foizdan 71 foizgacha ko'rsatkichda e'lon qilinsa	0,5	
	55 foizdan kam ko'rsatkichda e'lon qilinsa	0	
<b>Ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar to'plamining e'lon qilinishi</b>			
2.	belgilangan ma'lumotlar to'plami 100 foizlik ko'rsatkichda e'lon qilinsa	2	
	71 foizdan 86 foizgacha ko'rsatkichda e'lon qilinsa	1	
	55 foizdan 71 foizgacha ko'rsatkichda e'lon qilinsa	0,5	
	55 foizdan kam ko'rsatkichda e'lon qilinsa	0	
<b>Geopozitsiyaga bog'langan ochiq ma'lumotlar to'plamining ulushi</b>			
3.	belgilangan ma'lumotlar to'plami 100 foizlik ko'rsatkichda bog'lansa	2	
	71 foizdan 86 foizgacha ko'rsatkichda bog'lansa	1	
	55 foizdan 71 foizgacha ko'rsatkichda bog'lansa	0,5	
	55 foizdan kam ko'rsatkichda bog'lansa	0	
<b>Elektron hukumat yagona identifikatorlariga bog'langan ochiq ma'lumotlarning soni</b>			
4.	ma'lumotlar 100 foizlik ko'rsatkichda bog'lansa	2	
	71 foizdan 86 foizgacha ko'rsatkichda bog'lansa	1	
	55 foizdan 71 foizgacha ko'rsatkichda bog'lansa	0,5	
	55 foizdan kam ko'rsatkichda bog'lansa	0	
<b>Ochiq ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan mobil ilovalar soni</b>			
5.	har yili 3 tagacha mobil ilovalar ishlab chiqilsa	2	
	2 tagacha mobil ilovalar ishlab chiqilsa	1	
	1 ta mobil ilova ishlab chiqilsa	0,5	
	mobil ilova ishlab chiqilmasa	0	
	<b>Mezonlar soni</b>	<b>5 ta</b>	
	<b>Umumiy ball</b>	<b>10*</b>	
<p><i>*Mezon bo'yicha baholash ballarini yakuniy hisoblash tartibi:</i></p> <p><b>Bunda:</b></p> <p><math>W</math> — e'lon qilingan (bog'langan) ma'lumotlar to'plamining foiz ko'rsatkichi;</p> <p><math>Q</math> — baholanadigan ko'rsatkichlarning umumiy miqdori;</p> <p><math>F</math> — ijro etilmagan ko'rsatkichlarning umumiy miqdori;</p> <p><math>Q</math> — baholanadigan ko'rsatkichlarning umumiy miqdori.</p>		$W = \frac{Q - F}{Q} \times 100\%$	

Izoh:

1. Indikatorning barcha baholash mezonlarida ko'rsatilgan ma'lumotlar davlat organlari va tashkilotlari tomonidan Ochiq ma'lumotlar portalida e'lon qilish darajasi bo'yicha baholanadi (davlat sirlari va xizmat doirasida foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno).

2. Baholash mezoni bo'yicha e'lon qilingan (bog'langan) ma'lumotlarni yangilash davriyligiga rioya qilinmaganligi, hajmining to'liq emasligi yoki noto'g'ri ekanligi, foydalana olish imkoniyati va qulayligi talablarga javob bermagan taqdirda, jamlangan umumiy foiz ko'rsatkichidan 1 ball dan 3 ballgacha ayirib tashlanishi mumkin.

3. Indikator bo'yicha to'plangan umumiy ballar Davlat statistika qo'mitasi tomonidan jamlanib, Davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini monitoring qilish va baholash bo'yicha metodikaga 9-ilova bilan tasdiqlangan sxemada ko'rsatilgan muddatlarda muvofiqlashtiruvchi organga taqdim qilinadi;

Muvofiqlashtiruvchi organ tomonidan umumiy to'plangan ballar indikatorda ko'rsatilgan mezonlar soniga bo'linib, jamlangan holda Baholash komissiyasiga taqdim qilinadi.

4. Davlat statistika qo'mitasi mazkur mezonlar doirasidan chetga chiqmagan holda o'z baholash ko'rsatkichlarini asoslantirishga qaratilgan qo'shimcha jadvallar ishlab chiqishi va foydalanishi mumkin.

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini monitoring qilish va baholash bo'yicha  
metodikaga  
6-ILOVA

**Ommaviy kommunikatsiya texnologiyalarining joriy qilinishini**

**BAHOLASH MEZONLARI**

<b>T/r</b>	<b>Baholash mezonlari</b>	<b>Ballar</b>	<b>To'plangan ball</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>
<b>Qayta aloqaning tashkil etilganligi</b>			
1.	“Ishonch telefonlari” (Call-markazlar) orqali qayta aloqa tashkil etilgan bo'lsa	1	
	qayta aloqa yo'lga qo'yilmagan bo'lsa	0	
<b>Murojaat yo'llashning interaktiv usullari tashkil etilganligi</b>			
2.	murojaatni to'g'ridan to'g'ri veb-sayt yoki uning mobil versiyasi orqali yuborish, ko'rib chiqish jarayonini real vaqt rejimida kuzatib borish, shaxsning identifikatsiya ma'lumotlari asosida javob olish, ko'rib chiqish natijalariga nisbatan munosabat bildirish va baholash imkoniyati mavjud bo'lsa	1	
	murojaatni yo'llash va ko'rib chiqishning interaktiv usullari qisman joriy etilgan bo'lsa	0,5	
	murojaat yo'llashning imkoni mavjud bo'lmasa	0	
<b>Foydalanuvchilar bilan kommunikatsiya tarmog'i orqali muloqot qilish tizimi yo'lga qo'yilganligi</b>			
3.	foydalanuvchilar bilan kommunikatsiya tarmog'i orqali muloqot qilish uchun maxsus dasturiy ta'minot va uning mobil ilovasi mavjud bo'lsa	1	
	maxsus dasturiy ta'minot va uning mobil ilovasi ishchi holatda bo'lmasa	0,5	
	maxsus dasturiy ta'minot va uning mobil ilovasi mavjud bo'lmasa	0	
<b>Rahbar bilan bevosita muloqot qilish tizimining tashkil etilganligi</b>			
4.	shaxsan rahbar bilan muloqot qilish va murojaat yo'llash tizimi tashkil etilgan bo'lsa	1	
	rahbar o'rinbosarlari bilan muloqot qilish va murojaat yo'llash tizimi tashkil etilgan bo'lsa	0,5	
	muloqot qilish yoki murojaat yo'llash tizimi yo'lga qo'yilmagan bo'lsa	0	
	<b>Mezonlar soni</b>	<b>4 ta</b>	
	<b>Umumiy ball</b>	<b>4</b>	

Izoh:

1. Indikator baholash mezonlarida ko'rsatilgan ma'lumot (axborot) va xizmatlar davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-sayti hamda maxsus dasturiy ta'minot vositalari orqali e'lon qilinishi (davlat xizmatini ko'rsatish) darajasi bo'yicha baholanadi (davlat sirlari va xizmat doirasida foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno).

2. Har bir baholash mezonining birinchi bandida ko'rsatilgan barcha talablar to'liq bajarilmagan, hajmining to'liq emasligi, noto'g'ri ma'lumotlardan foydalanilgan yoki foydalanish imkoniyati talablariga javob bermagan taqdirda, jamlangan umumiy foiz ko'rsatkichidan 1 ballgacha ayirib tashlanishi mumkin.

3. Indikator bo'yicha to'plangan umumiy ballar Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan jamlanadi va Davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini monitoring qilish va baholash bo'yicha metodikaga 9-ilova bilan

tasdiqlangan sxemada ko'rsatilgan muddatlarda muvofiqlashtirilib, jamlangan holda Baholash komissiyasiga taqdim qilinadi.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mazkur mezonlar doirasidan chetga chiqmagan holda o'z baholash ko'rsatkichlarini asoslantirishga qaratilgan qo'shimcha jadvallar ishlab chiqishi va foydalanishi mumkin.

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini monitoring qilish va baholash bo'yicha  
metodikaga  
7-ILOVA

## Korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishda ochiqlik tamoyillaridan foydalanish holatini

### BAHOLASH MEZONLARI

T/r	Baholash mezonlari	Ballar	To'plangan ball
1	2	3	4
<b>Korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishga doir ichki idoraviy hujjatlarning ochiq e'lon qilinishi</b>			
1.	korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularningoldini olishga doir idoraviy hujjatlar (korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish haqida nizom, odob-axloq qoidalari, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyati, kontragentlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma, davlat xaridlarini o'tkazish to'g'risidagi nizom, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash va baholash uslubiyati, korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida ma'lumot berish uchun aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarini qabul qilish, ko'rib chiqish va qayta ishlash reglamenti, sohadagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish reglamenti) e'lon qilinsa	2	
	hujjatlar to'liq bo'lmagan yoki yangilab borish muddatlariga rioya qilinmagan holda e'lon qilinsa	1	
	hujjatlar e'lon qilinmasa	0	
<b>Korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan alohida aloqa kanallari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi</b>			
2.	korrupsiyaviy holatlar haqida xabar berishga mo'ljallangan alohida aloqa kanallari (qisqa raqamli "ishonch telefoni", elektron pochta va boshqa elektron manzillar, telegram bot, platforma yoki boshqa maxsus dasturiy ta'minot) haqidagi ma'lumotlar e'lon qilinsa	2	
	aloqa kanallari qisman tashkil etilsa yoki to'liq e'lon qilinmasa	1	
	aloqa kanallari tashkil etilmasa va e'lon qilinmasa	0	
<b>Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda korrupsiyaviy holatlarning oldini olish tizimi joriy etilganligi</b>			
3.	rasmiy veb-saytda ishga qabul qilish va rotatsiya to'g'risidagi ma'lumotlar (axborot) e'lon qilinib, bo'sh ish o'rinlari uchun nomzodlarni tanlash jarayonlari jonli (onlayn) translatsiya qilib borilsa	2	
	ma'lumotlarni e'lon qilish, yangilab borish va jonli translatsiya qilish to'liq amalga oshirilmasa	1	
	ma'lumotlar e'lon qilinmasa va nomzodlarni tanlash jarayonlari jonli translatsiya qilinmasa	0	
<b>Korrupsiyaga nisbatan murosasizlik munosabatini belgilovchi hujjatlarni e'lon qilish darajasi</b>			
4.	mehnat munosabatlariga oid hujjatlarda (mehnat yoki jamoat shartnomasi) korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish, korrupsiya holatlari	2	

	haqida xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish va ularni ta'qibga olmaslik kafolatini belgilovchi ichki idoraviy hujjatlar e'lon qilinsa		
	hujjatlar to'liq e'lon qilinmasa	1	
	hujjatlar e'lon qilinmasa	0	
<b>Manfaatlar to'qnashuvi holatlari haqida jamoatchilik oldida hisobdorlik tizimining joriy etilganligi</b>			
5.	aniqlangan har bir manfaatlar to'qnashuvi holatlariga nisbatan ichki idoraviy tekshiruv natijalari, qabul qilingan qaror va ularningoldini o'zlashtirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar haqidagi ma'lumot (hisobot, axborot va boshqa) e'lon qilinsa	2	
	e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlarga qo'yilgan talablar qisman bajarilsa	1	
	ma'lumot e'lon qilinmasa	0	
<b>Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularning oldini olish choralarini ko'rish va natijalari haqida hisobdorlik tizimi yo'lga qo'yilganligi</b>			
6.	korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar (tahlillar va jamoatchilik so'rovlari, shu jumladan onlayn so'rovnoma va uning natijalari, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va minimallashtirish bo'yicha ko'rilgan choralar haqidagi hisobotlar (axborot), ichki idoraviy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertiza natijalari) e'lon qilinsa	2	
	e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlarga qo'yilgan talablar qisman bajarilsa	1	
	ma'lumot e'lon qilinmasa	0	
<b>Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki tartib-taomillaridan xabardorligi hamda sohadagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi</b>			
7.	xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tayyorlash va qayta tayyorlash, shu jumladan yangi ishga qabul qilingan xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha joriy etilgan tizim, ishlab chiqilgan maxsus o'quv dasturlar, qo'llanma va boshqa hujjatlar e'lon qilinsa	2	
	e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlarga qo'yilgan talablar qisman bajarilsa	1	
	ma'lumot e'lon qilinmasa	0	
<b>Keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari ishtirokida o'tkazilgan press-tadbirlarni (matbuot anjumanlari, brifing, seminar, trening, davra suhbat, taqdimot, muhokama va boshqa tadbirlar) e'lon qilish darajasi</b>			
8.	infografika va video formatda e'lon qilinsa	1	
	foto va matn shaklida e'lon qilinsa	0,5	
	axborot e'lon qilinmasa	0	
<b>Korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish borasida tayyorlangan targ'ibot materiallarini (slyd, rolik, ma'ruza matnlari, maqola, buklet, risola va boshqalar) e'lon qilish darajasi</b>			
9.	slyd, rolik, buklet va risola shaklida e'lon qilinsa	1	
	ma'ruza matnlari va maqola shaklida e'lon qilinsa	0,5	
	axborot e'lon qilinmasa	0	
	<b>Mezonlar soni</b>	<b>9 ta</b>	
	<b>Umumiy ball</b>	<b>16*</b>	

Izoh:

1. Indikator baholash mezonlarida ko'rsatilgan ma'lumotlar (axborot) davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi hamda maxsus dasturiy ta'minot vositalari orqali amalga oshirilishi darajasi bo'yicha baholanadi (davlat sirlari va xizmat doirasida foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno).

2. Baholash mezonlarining birinchi bandida ko'rsatilgan talablar to'liq bajarilmagan, hajmining to'liq emasligi, noto'g'ri ma'lumotlar kiritilgan yoki foydalanish imkoniyati talablarga javob bermagan taqdirda, jamlangan umumiy foiz ko'rsatkichidan 1 balldan 3 ballgacha ayirib tashlanishi mumkin.

3. Indikator bo'yicha to'plangan umumiy ballar Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan jamlanadi va Davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqqligini monitoring qilish va baholash bo'yicha metodikaga 9-ilova bilan tasdiqlangan sxemada ko'rsatilgan muddatlarda muvofiqlashtirilib, jamlangan holda Baholash komissiyasiga taqdim qilinadi.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mazkur mezonlar doirasidan chetga chiqmagan holda o'z baholash ko'rsatkichlarini asoslantirishga qaratilgan qo'shimcha jadvallar ishlab chiqishi va foydalanishi mumkin.

\*Indikatorning 8 va 9-baholash mezonlari bo'yicha eng kam miqdor har yili ikki martadan (ikkitadan) kam bo'lgan taqdirda mezonlar bo'yicha maksimal ballning 50 foizi miqdorida baholanadi.

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqqligini monitoring qilish va baholash bo'yicha  
metodikaga  
8-ILOVA

**Jamoatchilik kengashining faoliyati samaradorligini**

**BAHOLASH MEZONLARI**

T/r	Baholash mezonlari	Ballar	To'plangan ball
1	2	3	4
<b>Rasmiy veb-saytda jamoatchilik kengashi haqidagi ma'lumotlarning joylashtirilishi</b>			
1.	jamoatchilik kengashiga bag'ishlangan alohida sahifa tashkil etilib, kengash faoliyati haqidagi (jamoatchilik kengashining yig'ilishlari va kun tartibidagi masalalar, tasdiqlangan a'zolari ro'yxati, telefon raqami, pochta va elektron manzillari, ijtimoiy messenjerlardagi rasmiy sahifalari, davlat organi rahbarining davriy hisobotlari eshituvi hamda kengash faoliyati to'g'risida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan maqola va chiqishlarning yoritib borilishi) ma'lumotlar e'lon qilinsa	2	
	ma'lumotlar to'liq bo'lmagan, alohida sahifadan boshqa manzilda yoki yangilab borish muddatlariga rioya qilinmagan holda e'lon qilinsa	1	
	ma'lumotlar e'lon qilinmasa	0	
<b>Jamoatchilik kengashining tashkiliy-huquqiy asoslari ishlab chiqilganligi hamda belgilangan tartibda e'lon qilinganligi</b>			
2.	jamoatchilik kengashining tasdiqlangan nizomi, amalga oshirilishi rejalashtirilgan vazifalar bo'yicha har yillik chora-tadbirlar rejasi va tasdiqlangan reja asosida o'tkazilishi kutilayotgan yig'ilishlar jadvali e'lon qilinsa	2	
	hujjatlar to'liq bo'lmagan yoki yangilab borish muddatlariga rioya qilinmagan holda e'lon qilinsa	1	
	hujjatlar e'lon qilinmasa	0	
<b>Jamoatchilik kengashi tarkibini shakllantirish bo'yicha belgilangan talablarning bajarilish darajasi</b>			
3.	jamoatchilik kengashi tarkibini shakllantirishga oid talablarga (tarkibning kamida 50 foizini nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari tashkil etishi va Jamoatchilik palatasi bilan kelishilganligi haqidagi ma'lumotlar kiritilgan davlat organi rahbarining qarori, a'zolarining soni 15 nafardan kam bo'lmashligi, tarkibida ishchi (ekspert) guruhlar	2	

	tashkil etilganligi) rioya etilishi va bu haqdagi ma'lumotlar (hujjatlar) ochiq e'lon qilinsa		
	hujjatlar (ma'lumotlar) to'liq bo'lmagan yoki yangilab borish muddatlariga rioya qilinmagan holda e'lon qilinsa	1	
	hujjatlar (ma'lumotlar) e'lon qilinmagan	0	
<b>Jamoatchilik kengashining ochiqlikni ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat organi faoliyatini takomillashtirishdagi ishtiroki</b>			
4.	kengashning ochiqlikni ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat organi faoliyatini takomillashtirish borasida amalga oshirgan chora-tadbirlar haqidagi (ochiqlik, shaffoflik va jamoatchilik oldida hisobdorlikni ta'minlash, davlat dasturlari hamda boshqa hujjatlar bo'yicha berilgan vazifalarning ijrosiga oid hisobotlarni eshitish, xorijiy mamlakatlardagi analogik organlar tajribasi o'rganilib, ichki hujjatlar va faoliyatni takomillashtirish borasida takliflar ishlab chiqilganligi) tahliliy ma'lumotlar muntazam e'lon qilinsa	2	
	ma'lumotlar to'liq bo'lmagan, alohida sahifadan boshqa manzilda yoki yangilab borish muddatlariga rioya qilinmagan holda e'lon qilinsa	1	
	ma'lumotlar e'lon qilinmagan	0	
	<b>Mezonlar soni</b>	<b>4 ta</b>	
	<b>Umumiy ball</b>	<b>8</b>	

Izoh:

1. Indikator baholash mezonlarida ko'rsatilgan ma'lumotlar (axborot) davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi darajasi bo'yicha baholanadi.

2. Har bir baholash mezonining birinchi bandida ko'rsatilgan talablar to'liq bajarilmagan, yangilab borish davriyligiga rioya qilinmagan, hajmining to'liq emasligi yoki noto'g'ri ekanligi yoxud foydalanish imkoniyati talablarga javob bermagan taqdirda, jamlangan umumiy foiz ko'rsatkichidan 1 ballgacha ayirib tashlanishi mumkin.

3. Indikator bo'yicha to'plangan umumiy ballar Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan jamlanadi va Davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini monitoring qilish va baholash bo'yicha metodikaga 9-ilova bilan tasdiqlangan sxemada ko'rsatilgan muddatlarda muvofiqlashtirilib, jamlangan holda Baholash komissiyasiga taqdim qilinadi.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mazkur mezonlar doirasidan chetga chiqmagan holda, o'z baholash ko'rsatkichlarini asoslantirishga qaratilgan qo'shimcha jadvallar ishlab chiqishi va foydalanishi mumkin.

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini monitoring qilish va baholash bo'yicha  
metodikaga  
9-ILOVA

### Davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini

#### BAHOLASH SXEMASI

Bosqichlar	Tadbirlar	Muddatlar	Mas'ul organlar
1-bosqich	Ochiqlikni ta'minlashga mas'ul xodimlar tomonidan ma'lumotlarni Internet resurslariga joylashtirish	Metodikaning 10-bandida ko'rsatilgan muddatlarda	Davlat organlari va tashkilotlarining mas'ul xodimlari
2-bosqich	Baholash faoliyatida ishtirok etadigan davlat organlari tomonidan o'zlari mas'ul bo'lgan indikatorlar bo'yicha to'plangan ballarning	Har yili mart oyining 10-sanasisiga qadar	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi, Moliya vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi

	hisoblash ko'rsatkichlarini muvofiqlashtiruvchi organga yuborish		
3-bosqich	Barcha indikatorlar bo'yicha to'plangan ballarning hisoblash ko'rsatkichlarini davlat organlari va tashkilotlari kesimida umumlashtirib, ochiqlik indeksini hisoblash natijalarini Baholash komissiyasiga taqdim qilish	Har yili mart oyining 20-sanasiga qadar	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi
4-bosqich	Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik indeksini e'lon qilish	Har yili aprel oyining 1-sanasiga qadar	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (Baholash komissiyasi qarori asosida)
5-bosqich	Ochiqlik indeksini hisoblash natijalari va tahliliy ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga kiritish	Har yili aprel oyining 15-sanasiga qadar	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi PF-154-son Farmoniga  
2-ILOVA

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-son Farmonining 2-bandi quyidagi mazmundagi o'n to'rtinchi — o'n sakkizinchi xatboshilar bilan to'ldirilsin:

“davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash sohasini muvofiqlashtirish va doimiy monitoring qilish, shu jumladan ularning normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan ma'lumotlarni Internet tarmog'iga joylashtirish (e'lon qilish) bo'yicha majburiyatlari hisobini yuritish;

davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan ommaviy axborot vositalari orqali samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatish bo'yicha choralarning ishlab chiqilishi va joriy etilishiga ko'maklashish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlaridan kelib chiquvchi davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligiga oid dolzarb masalalarni "Mening fikrim" veb-portali orqali umumxalq muhokamasiga chiqarish;

Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxatini uzluksiz to'ldirish, takomillashtirib borish va yangilab borish bo'yicha takliflar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishga ko'maklashish;

ommaviy axborot vositalari orqali davlat organlari va tashkilotlari xizmatchilariga "davlat organlari faoliyati ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligi" madaniyatini singdirish hamda davlat organlari va mansabdor shaxslar xalq oldida hisobdorligini ta'minlash muhimligi to'g'risida tushuntirish ishlari olib borilishini tashkil etish".

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son Farmoni bilan tasdiqlangan Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxati quyidagi mazmundagi 35-pozitsiya bilan to'ldirilsin:

“

35.	Davlat budjeti, shuningdek, xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar, shu jumladan istiqbolli investitsiya va infratuzilma loyihalari bo'yicha ularning asosiy texnik ko'rsatkichlari va boshqa loyiha hujjatlari to'g'risidagi ma'lumotlar.	Rasmiy veb-saytlar	har yarim yillikda	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, mas'ul vazirlik va idoralar (loyiha tashabbuskorlari)
-----	---	--------------------	--------------------	---

”.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-martdagi PQ-2847-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi to'g'risidagi nizomning **9-bandida**:

a) **3-kichik band** quyidagi mazmundagi o'n yettinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“davlat ishtirokidagi korxonalariga sarflangan Davlat budjeti mablag'lari to'g'risidagi ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portaliga joylashtirib boradi va ularning har chorakda yangilanishini ta'minlaydi”;

b) **5-kichik band** quyidagi mazmundagi o'n to'rtinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“tegishlicha xoriждан jalb etilgan mablag'lar, shu jumladan davlat tashqi qarzi summalari hamda ularning sarflanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portaliga joylashtirib boradi va ularning har chorakda yangilanishini ta'minlaydi”.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-iyuldagi “Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3837-son qarorida:

a) **4-bandda**:

quyidagi mazmundagi sakkizinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“davlat organining rasmiy veb-saytida jamoatchilik kengashi faoliyati bilan bog'liq ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni joylashtirib borish hamda ularning har chorakda yangilanib borilishini ta'minlash”;

**sakkizinchi — o'ninchi xatboshilar** tegishincha to'qqizinchi — o'n birinchi xatboshilar deb hisoblansin;

b) **ilovada**:

**8-bandda**:

quyidagi mazmundagi sakkizinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“davlat organining rasmiy veb-saytida jamoatchilik kengashi faoliyati bilan bog'liq ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni joylashtirib borish hamda ularning har chorakda yangilanib borilishini ta'minlash”;

**sakkizinchi — o'ninchi xatboshilar** tegishincha to'qqizinchi — o'n birinchi xatboshilar deb hisoblansin;

**16-band** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“16. Jamoatchilik kengashining tasdiqlangan a'zolari haqidagi ma'lumotlar, shuningdek, ularning aloqa ma'lumotlari (telefon, pochta va elektron manzillari) va ularga kiritilgan o'zgartishlar ular tasdiqlangan paytdan boshlab 5 kun ichida davlat organining rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi shart”;

22-band quyidagi mazmundagi uchinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:


“Jamoatchilik kengashining yig'ilishlari va kun tartibidagi masalalar davlat organining rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi shart”.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-4761-son qaroriga **ilova** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

---“O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PQ-4761-son qaroriga  
**ILOVA**”

## O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi

### TUZILMASI



Call-markaz

Agentlik boshqaruv xodimlarining umumiy soni — 50 nafar”.

*(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.06.2022-y., 06/22/154/0524-son)*